

XORIJIY TIL DARSLARIDA O'QUVCHILARNING REFLEKSIY KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Samiyeva Malika

Namangan Davlat Pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti pedagogika nazariyasi va tarixi yonalishi

AU- 25- guruh 1-bosqich magistratura talabasi

malikasamiyeva842@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada xorijiy til darslarida o'quvchilarning refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik va metodik asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek, refleksiya jarayonining o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, o'z faoliyatini baholashi hamda kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdagi o'рни yoritilgan. Maqolada xorijiy til ta'limida refleksiv metodlardan foydalanishning samarali usullari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Refleksiya, refleksiv ko'nikma, xorijiy til ta'limi, kommunikativ kompetensiya, interfaol metodlar, mustaqil fikrlash, pedagogik texnologiyalar, ta'lim samaradorligi, o'quv faoliyati, innovatsion yondashuv.

МЕТОДОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ РЕФЛЕКСИВНЫХ НАВЫКОВ УЧЕНИКОВ НА УРОКАХ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

Аннотация. В данной статье анализируются педагогические и методологические основы развития рефлексивных навыков учащихся на уроках иностранного языка. Также освещается роль процесса рефлексии в развитии самостоятельного мышления, самооценки и коммуникативной компетентности учащихся. В статье представлены эффективные методы использования рефлексивных методов в обучении иностранным языкам, современные педагогические технологии и практические рекомендации.

Ключевые слова: Рефлексия, рефлексивные навыки, обучение иностранным языкам, коммуникативная компетентность, интерактивные методы, самостоятельное мышление, педагогические технологии, эффективность обучения, учебная деятельность, инновационный подход.

METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS' REFLECTIVE SKILLS IN FOREIGN LANGUAGE LESSONS

Annotation. This article analyzes the pedagogical and methodological foundations of developing students' reflective skills in foreign language lessons. It also highlights the role of the reflection process in developing students' independent thinking, self-assessment, and communicative competence. The article presents effective methods for using reflective methods in foreign language education, modern pedagogical technologies, and practical recommendations.

Keywords: Reflection, reflective skills, foreign language education, communicative competence, interactive methods, independent thinking, pedagogical technologies, educational effectiveness, learning activities, innovative approach.

KIRISH

Bugungi kunda dunyo ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'qitishga bo'lgan e'tibor tobora ortib bormoqda. Globallashtirish jarayonlari, xalqaro hamkorlikning kengayishi hamda axborot texnologiyalarining rivojlanishi xorijiy tillarni puxta o'rganishni zamon talabi darajasiga olib chiqdi. Shu sababli xorijiy til ta'limida faqat grammatik bilimlarni o'rgatish emas, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, o'z faoliyatini tahlil qilishi va baholash ko'nikmalarini rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim jarayonida refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish o'quvchilarning o'z bilim va imkoniyatlarini anglashiga yordam beradi. Refleksiya orqali o'quvchi o'zining muvaffaqiyat va kamchiliklarini tahlil qiladi, o'z ustida ishlashga intiladi hamda keyingi faoliyatini rejalashtirishni o'rganadi. Ayniqsa, xorijiy til darslarida refleksiv yondashuv o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Bugungi zamonaviy pedagogik yondashuvlarda o'quvchi ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan xorijiy til darslarida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar va refleksiv topshiriqlardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Refleksiv faoliyat orqali o'quvchilar o'z fikrini erkin ifodalash, xatolarini tahlil qilish hamda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Mavzuning dolzarbligi shundaki, hozirgi kunda xorijiy til ta'limida refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirish masalasi pedagogik va metodik jihatdan muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki refleksiya o'quvchilarning faolligini oshirish, ularning bilim olish jarayoniga ongli yondashishini shakllantirish va ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Mazkur maqolaning maqsadi xorijiy til darslarida o'quvchilarning refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirishning metodik asoslarini yoritish, samarali usullar va pedagogik texnologiyalarni tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, refleksiv faoliyatni tashkil etishning amaliy ahamiyati ham ochib beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Pedagogika va psixologiya fanlarida refleksiya tushunchasi insonning o'z faoliyati, fikrlashi va xatti-harakatlarini anglash hamda tahlil qilish jarayoni sifatida talqin etiladi. Refleksiv ko'nikmalar esa shaxsning o'z bilimlari, tajribasi,

faoliyati va natijalariga tanqidiy yondasha olish qobiliyatini ifodalaydi. Refleksiya tushunchasi ta'limda ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan **Jalolov J.J** "Chet tili o'qitish metodikasi" sifatida talqin qilgan. Refleksiv yondashuvning ahamiyati **Tolipov O', Usmanbayeva M.** Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari tatqiqotlarida o'z aksini topgan. Mazkur ko'nikmalar o'quvchilarning o'z ustida ishlashi, xatolarini aniqlashi va kelgusidagi faoliyatini to'g'ri rejalashtirishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonida refleksiya o'quvchining bilim olishdagi faol pozitsiyasini shakllantiradi. O'quvchi nafaqat tayyor bilimni qabul qiladi, balki o'z faoliyatini tahlil qilib, bilimlarni qanday o'zlashtirayotganini ham anglay boshlaydi. Bu esa ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Refleksiv yondashuv orqali o'quvchilar mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va o'z xulosalarini chiqarish ko'nikmalariga ega bo'shadilar. Refleksiv ko'nikmalarning pedagogik mohiyati, avvalo, o'quvchilarda o'z-o'zini baholash va nazorat qilish qobiliyatini rivojlantirish bilan belgilanadi. Bunday ko'nikmaga ega bo'lgan o'quvchi o'zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlay oladi, bilimlaridagi bo'shliqlarni tushunadi hamda ularni bartaraf etishga intiladi. Natijada o'quvchida mustaqil ta'lim olish kompetensiyasi shakllanadi. Xorijiy til ta'limida refleksiv ko'nikmalar alohida ahamiyatga ega. Chunki til o'rganish jarayoni muntazam mashq qilish, o'z nutqini nazorat etish va xatolar ustida ishlashni talab qiladi. O'quvchi o'z talaffuzi, grammatik xatolari yoki lug'at boyligi darajasini tahlil qilish orqali o'z rivojlanish bosqichlarini anglaydi. Shu asosda u tilni o'rganishda yanada samarali usullarni tanlashga harakat qiladi. Refleksiv faoliyatning yana bir muhim jihati shundaki, u o'quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. O'quvchi dars davomida o'z fikrini erkin ifodalash, o'z g'ayri fikrini tinglash va tahlil qilish jarayonida muloqot madaniyatini egallaydi. Bu esa xorijiy til darslarida kommunikativ kompetensiyaning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, refleksiv ko'nikmalar o'quvchilarning ta'limga bo'lgan motivatsiyasini ham oshiradi. O'z natijalarini kuzatib borayotgan o'quvchi o'zida rivojlanish borligini sezadi va bu holat uni yanada faolroq bo'lishga undaydi. Ayniqsa, dars yakunidagi refleksiv savollar, baholash jadvallari va o'z-o'zini tahlil qilish topshiriqlari o'quvchilarning ta'lim jarayoniga ongli yondashuvini shakllantiradi.

Xorijiy til ta'limida reflektiv yondashuvni qo'llash zamonaviy pedagogikaning muhim talablaridan biri hisoblanadi. Chunki bugungi ta'lim tizimida o'quvchilarning faqat nazariy bilimlarni egallashi emas, balki o'z faoliyatini tahlil qila olishi, mustaqil fikrlashi va o'z ustida ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan reflektiv yondashuv xorijiy tilni o'qitish jarayonining samaradorligini oshirishda muhim metodik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Reflektiv yondashuv o'quvchilarning o'z bilim va ko'nikmalarini baholashiga yordam beradi. Xorijiy tilni o'rganish jarayonida o'quvchi o'zining tinglab tushunish, gapirish, yozish va o'qish kompetensiyalarini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa o'quvchining o'z kamchiliklarini anglashiga va ularni bartaraf etish ustida ishlashiga xizmat qiladi. Natijada ta'lim jarayonida o'quvchining mas'uliyati ortadi va mustaqil ta'lim olishga bo'lgan ehtiyoji shakllanadi. Xorijiy til ta'limida reflektiv yondashuv kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda ham muhim o'rin tutadi. Dars davomida o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifodalash, muloqot qilish va bahs-munozaralarda qatnashish orqali nafaqat til ko'nikmalarini, balki tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradilar. Ayniqsa, juftlik va guruhli ishlarda reflektiv faoliyat samarali natija beradi. O'quvchilar bir-birining fikrini tinglash, xatolarini aniqlash va o'zaro fikr almashish orqali kommunikativ tajriba orttiradilar. Reflektiv yondashuvning yana bir muhim jihati shundaki, u o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi. O'quvchi o'z natijalarini muntazam kuzatib borganda va o'zida ijobiy o'zgarishlarni sezganda, unda til o'rganishga nisbatan qiziqish ortadi. Masalan, dars oxirida o'tkaziladigan qisqa reflektiv suhbatlar yoki yozma tahlillar o'quvchilarning o'z rivojlanishini anglashiga yordam beradi. Reflektiv yondashuv o'qituvchi uchun ham muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quvchilarning reflektiv fikrlarini tahlil qilish orqali darsning samaradorligini baholaydi, mavjud muammolarni aniqlaydi va keyingi mashg'ulotlarni yanada takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa ta'lim sifatining oshishiga xizmat qiladi.

Xorijiy til darslarida reflektiv ko'nikmalarni rivojlantirish o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, o'z faoliyatini baholashi hamda o'z ustida ishlash malakasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ta'lim jarayonida reflektiv

faoliyatni tashkil etishga xizmat qiluvchi samarali metodlardan foydalanish zarur hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishda interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar va ijodiy topshiriqlarning samaradorligini alohida ta'kidlaydi. Refleksiv ko'nikmalarni shakllantirishda eng ko'p qo'llaniladigan metodlardan biri refleksiya kundaligi hisoblanadi. Ushbu metod orqali o'quvchilar har bir darsdan so'ng o'z taassurotlari, o'rgangan yangi bilimlari va duch kelgan qiyinchiliklari haqida yozadilar. Refleksiya kundaligi o'quvchilarning o'z-o'zini tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantirish bilan birga, yozma nutq malakasini ham takomillashtiradi. Bunday faoliyat natijasida o'quvchi o'z rivojlanish bosqichlarini kuzatib borish imkoniyatiga ega bo'ladi. "O'z-o'zini baholash" metodi ham refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim vosita sanaladi. Ushbu metodda o'quvchilar maxsus mezonlar asosida o'z faoliyatini baholaydilar. Masalan, xorijiy til darsida o'quvchi o'zining talaffuzi, lug'at boyligi yoki grammatik savodxonligini mustaqil tahlil qilishi mumkin. Bu esa o'quvchilarda mas'uliyat hissini kuchaytiradi va ta'lim jarayoniga ongli yondashuvni shakllantiradi. Xorijiy til ta'limida "Savol-javob refleksiyasi" usuli ham samarali metodlardan biri hisoblanadi. Dars yakunida o'qituvchi tomonidan "Bugun men nimani o'rgandim?", "Qaysi topshiriq men uchun qiyin bo'ldi?", "Kelgusi darsda nimani yaxshilashim kerak?" kabi savollar beriladi. O'quvchilar ushbu savollar asosida o'z faoliyatini tahlil qiladilar va xulosalar chiqaradilar. Bu metod o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlardan foydalanish ham refleksiv faoliyat samaradorligini oshiradi. Jumladan, "Aqliy hujum", "Klaster", "Sinkveyn", "INSERT" kabi metodlar o'quvchilarning erkin fikrlashi va o'z qarashlarini ifodalashiga yordam beradi. Ayniqsa, guruhli ishlarda o'quvchilar bir-birining fikrini tinglash va tahlil qilish orqali refleksiv tajribaga ega bo'ladilar. Rolli o'yinlar va debat metodlari xorijiy til darslarida refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishning samarali shakllaridan biri hisoblanadi. Bunday faoliyat jarayonida o'quvchilar real kommunikativ vaziyatlarda qatnashib, o'z nutqini nazorat qilish va xatolarini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, ular muloqot madaniyati va jamoada ishlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradilar.

XULOSA

Xorijiy til darslarida o'quvchilarning refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirish zamonaviy ta'limning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Refleksiv yondashuv o'quvchilarning o'z bilim va faoliyatini tahlil qilishi, mustaqil fikrlashi hamda o'z ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, xorijiy til ta'limida refleksiya o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, muloqot madaniyatini shakllantirish va til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Maqolada tahlil qilinganidek, refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishda refleksiya kundaligi, o'z-o'zini baholash, savol-javob refleksiyasi, interfaol metodlar, rolli o'yinlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samarali natija beradi. Ushbu metodlar o'quvchilarning faolligini oshiradi, tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi hamda ta'lim jarayoniga ongli yondashuvni shakllantiradi. Refleksiv faoliyat nafaqat o'quvchilar, balki o'qituvchilar uchun ham muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Chunki refleksiya orqali o'qituvchi dars samaradorligini tahlil qiladi, mavjud muammolarni aniqlaydi va ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda xorijiy til ta'limida innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan keng foydalanish refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirish uchun qulay imkoniyat yaratmoqda. Shu sababli xorijiy til o'qituvchilari dars jarayonida refleksiv yondashuvga alohida e'tibor qaratishlari, o'quvchilarning mustaqil tahlil qilish va o'z faoliyatini baholash ko'nikmalarini muntazam ravishda rivojlantirib borishlari maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogic mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 256 b (45–52-b).
2. Begimqulov U.Sh. Ta'limda axborot texnologiyalarini joriy etish masalalari. – Toshkent: Tafakkur, 2021. – 198 b (88–94-b).
3. Galskova N.D. Teoriya obucheniya inostrannym yazykam. Lingvodidaktika i metodika. – Moskva: Akademiya, 2018. – 336 s. (120–135-stranitsalar).
4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2020. – 240 b (73–81-b).
5. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2020. – 312 b (78–86-b).

6. Mavlonova R., To'rayeva O. Pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 328 b (132–140-b).
7. Saydahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar mohiyati va amaliyoti. – Toshkent: Moliya, 2018. – 172 b (59–67-b).
8. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2017. – 224 b (101–110-b).
9. Zimnyaya I.A. Pedagogicheskaya psixologiya. – Moskva: Logos, 2017. – 384 s. (144–152-stranitsalar).